ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11

TYPHA LATIFOLIA O‘SIMLIGI HAQIDA

G.Y.Mexmonova, M.S.Mexmonov

Urganch davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya: Maqolada Typha latifolia o'simligiga oid turli tarixiy adabiyotlardan materiallar va ma'lumotlarni o'rganish natijalari keltirilgan. Typha latifolia dan xalq tabobatida foydalanish haqida ko'plab ma'lumotlar to'plangan. O‘simlikning turli organlaridan olingan dori shakllari va ulardan turli kasalliklarni davolashda foydalanish yo‘llari ko'rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Yakan, Kengbarg qo‘g‘a, Typha latifolia, ildizpoya, uretrit, tsistit, yallig'lanishga qarshi, antibakterial.

Аннотация: В статье приводятся результаты изучения материалов и информаций различных исторических литератур о растении Typha latifolia. Собран множества информаций о применении Typha latifolia в народной медицине. Приведены лекарственные формы полученные из разных органов и применении их при лечении различных заболеваний.

Ключевые слова: Якан, Рогоз широколистный, Typha latifolia, корневище, уретрит, цистит, противовоспалительное, антибактериальное.

Annotation: The article presents the results of studying materials and information from various historical literatures about the plant Typha latifolia. A lot of information about the use of Typha latifolia in folk medicine has been collected. Medicinal forms obtained from different organs and their use in the treatment of various diseases are presented.

Key words: Yakan, broadleaf cattail, Typha latifolia, rhizome, urethritis, cystitis, anti-inflammatory, antibacterial.

Xozirgi vaqtda mamlakatimizda turli kasalliklarni davolashda qo’llanila-digan ko’plab dori preparatlari asosan chet davlatlardan import qilinadi. Import dori vositalari nisbatan qimmat bo’lganligi tufayli ularni sotib olishda va qo’llashda ko’plab muammolar vujudga keladi. Bu muammolarni xal qilishda mamlakatimizda yovvoyi xolda o’sadigan va o’stiriladigan o’simliklar tarkibini o’rganish, aniqlangan moddalar orasidan yuqori biologik faollikka ega bo’lgan moddalarni ajratib olish xamda tibbiyotga tavsiya qilish xozirgi zamonning dolzarb vazifalaridan biridir.

Dorivor o‘simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida 20.05.2022 yildagi PQ-251-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida Dorivor o‘simliklarni madaniy holda yetishtirish hamda qayta ishlashni tashkil etish, dorivor o‘simliklarning madaniy plantatsiyalarini barpo etishni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, kasalliklarning oldini olish va davolashda dorivor o‘simliklarni keng qo‘llash nazarda tutilgan.

Yuqoridagilarga asoslanib biz Xorazm voxasida keng tarqalgan va yovvoyi holda o‘sadigan, mahalliy aholi tomonidan *Yakan* (Boshqa ko‘pchilik viloyatlarda *Qo‘g‘a)* deb yuritiladigan, *Qo‘g‘adoshlar (Typhaceae)* oilasiga mansub *Kengbarg qo‘g‘a (Typha latifolia L.)* o‘simligining kimyoviy tarkibini o‘rganishni o‘z oldimizga maqsad qilib oldik.

Kengbarg qo‘g‘a - balandligi 2 metrga yetadigan ko'p yillik ildizpoyali o'simlik. Poyasi qalin, bo‘g‘inlari turtib chiqmagan tekis silindrsimon, balandligi 1-2 m. Ildizpoyasi katta, sudralib yuruvchi va suvga unchalik chuqur bo‘lmagan holda botib turadi. Barglari qattiq, chetlari butun, tasma shaklida, uzun, eni 2 sm gacha, kulrang-yashil rangga ega. Gullari bir jinsli, juda mayda, ingichka tuklardan iborat gulqo‘rg‘oni bor. Gul tizimi ikki qismdan iborat diametri 2,5 sm gacha bo'lgan uzun

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11

silindrsimon so‘ta. So‘ta baxmalsimon mayin bo‘lib, kuzga borib jigarrang tusga kiradi. So‘talar bahorgacha dekorativ shaklini saqlab qoladi, shundan so'ng ular mayda uchuvchan urug'larga parchalanib kuchziz shamolda ham uchib ketadi.

Kengbarg qo‘g‘a Rossiyaning Yevropa qismida iyun-iyul oylarida gullaydi, meva berish davri iyul-avgust oylariga to'g'ri keladi. Mevalar pishganidan so'ng, gullari to‘kilib ketadi. Urug'lar poyada olti oygacha saqlanib qolishi mumkin. *Kengbarg qo‘g‘a* asosan urug'lar bilan ko'payadi va tarqaladi.

Kengbarg qo‘g‘a Yevroosiyo, Janubiy va Shimoliy Amerika va Afrikaning issiq, mo‘tadil mintaqalarida keng tarqalgan. Avstraliya va Yangi Zelandiyada keltirib introduktsiya qilingan. Rossiyaning Arktikadan tashqari deyarli barcha hududlarida uchraydi. *Kengbarg qo‘g‘a* Ukraina va Belorussiyada keng tarqalgan.

Kengbarg qo‘g‘a o‘rmon botqoqlarida, o‘rmonzorlarda, suv havzalari qirg‘oqlarida, ariqlarda, kanallarda, karyerlarda, yo‘l bo‘ylarida o‘sadi. U o'sib ko‘paygan sayin keng to‘qayzorlarni hosil qiladi.

Kengbarg qo‘g‘a dengiz sathidan 2300 m balandlikda ham uchraydi.

O'simlikning yer usti qismida, xususan, barglarida ko'p miqdorda askorbin kislotas, oqsil va oz miqdorda yog'lar mavjud.

Kengbarg qo‘g‘a ildizpoyalarida oshlovchi moddalar, shakar, kraxmal, kaltsiy oksalat, oqsillar va yog'lar topilgan. Shuningdek, ho‘l ildizpoyada 66,5 % suv, 2 % sof oqsillar, 15,4 % kraxmal, 7,3 % kletchatka, 0,29 % yog‘lar, 2,54 % kul mavjud. Quritigan ildizpoyada kraxmal ulushi 46 % gacha, kletchatka 21,7% gacha ko'tariladi.

Astraxan viloyatida o'sadigan *Kengbarg qo‘g‘a* 58 % gacha kraxmal va 11,7 % gacha uglevodlarni o'z ichiga oladi.

Kengbarg qo‘g‘a yallig'lanishga qarshi, antibakterial va yaralarni bitiruvchi ta'sirga ega. O‘simlikning yosh novdalari vitamin C ombori bo'lib, ular vitamin yetishmasligi, kamqonlik, tsinga, mushaklar kuchsizligi va charchoq holatlarida ishlatiladi.

So‘ta va gullar turli xil qon ketishlarda (oshqozon, ichak, gemorroyoidal) gemostatik vosita sifatida ishlatiladi. Ularni uretrit va tsistitda, shuningdek, ginekologik kasalliklarni davolash uchun ham ishlatish mumkin. So‘ta momiqlari-dan tayyorlangan malham sovuq urganda va kuygan joylarni davolash uchun qo'llaniladi. Barglari va ildizpoyalarining damlamalari va qaynatmalari qonda qand miqdorini kamaytiruvchi, yallig'lanishga qarshi va burishtiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Damlamalar va qaynatmalarni dizenteriya, enterokolit, tsistit va qandli diabetda ishlatilishi mumkin. So‘talarning qaynatmasi bronxial astmani kompleks davolashda qo'llaniladi.

Kengbarg qo‘g‘aning yer ustki qismi va ildizpoyalarini xalq tabobatida ham dorivor mahsulot sifatida qo‘llaniladi. Ildizpoyalarining qaynatmasi va barglarining damlamasi qon aralash diareya va og'iz bo'shlig'i yaralarini, kolit va dizenteriyani davolashda qo'llaniladi. Xalq tabobatida ildizpoyalarning suvli damlamasi oshqozon va ichaklarning katarida, diareya, dizenteriya, isitma va charchoqda qo'llaniladi.

Yer ustki qismlari dizenteriya, stomatit, parodontoz kasalliklarida ishlatiladi, momiqlari esa, sovuq urgandan keyingi yiringlash holatlarini davolashda ishlatiladi.

Qandli diabetda barglarning qaynatmasi tavsiya etiladi. Yanchilgan barglar va momiqlar qon to‘xtatuvchi va antiseptik vosita sifatida jarohatlarga, kuygan, kesilgan va tirnalgan yaralarga qo‘yiladi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11

Xitoy tibbiyotida *Kengbarg qo‘g‘aning* gulchanglari kuchli qon ketish, mastit, suyak tuberkulyozi va to'qimalar nekrozini davolashda ishlatiladi.

Kengbarg qo‘g‘aning iste’mol qilsa bo‘ladigan o'simlik ekanligi haqidagi ma’lumotlar antik botanik Teofrastning taxminan 2300 yil oldin yozilgan "O'simliklar bo'yicha tadqiqotlar" asarida uchraydi. Botanik Yunonistonning Orhomen shahri yaqinidagi Kopaid ko'lida o'sadigan *Kengbarg qo‘g‘a* o'simligini tasvirlaydi. Teofrast qo‘g‘aning foydali xususiyatlarini "ildizlari atrofida, ayniqsa, bolalar tomonidan iste'mol qilinadigan nozik qismi" bor – deya ta’kidlagan.

O'simlik Shimoliy Amerikaning ba'zi mahalliy xalqlari madaniyatining bir qismi bo‘lgan. U oziq-ovqat va dori-darmonlar manbai sifatida ishlatilgan.

Ocharchilik yillarida *Kengbarg qo‘g‘a* vaqtincha oziq-ovqat o'rnini bosuvchi sifatida ko‘p marta tavsiya etilgan.

Bundan tashqari, ma'lumki, *Kengbarg qo‘g‘aning* yengil "momig‘i" bir vaqt-lar qutqarish kamzuli uchun to'ldiruvchi sifatida ishlatilgan.

XULOSALAR

1. Xorazm sharoitida yovvoyi holda o‘sadigan *Typha latifolia* o‘simligi haqida tarixiy va ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlar o‘rganildi va tadqiqotlar uchun xulosalar qilindi.
2. Xorazm sharoitida yovvoyi holda o‘sadigan *Typha latifolia* o‘simligining xalq tabobatida ishlatilgan tarixiy dori shakllari tayyorlash texnologiyalari o‘rganildi.
3. Xorazm sharoitida yovvoyi holda o‘sadigan *Typha latifolia* o‘simligining xalq tabobatida ishlatilgan tarixiy dori shakllari tarkiblari o‘rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Губанов, И. А. и др. 49. Typha latifolia L. — Рогоз широколистный //
2. Дикие съедобные растения / Под ред. акад. В. А. Келлера; АН СССР; Моск. ботан. сад и Ин-т истории матер. культуры им. Н. Я. Марра. — М.: б. и., 1941. — С. 3. — 40 с.
3. Бернардино де Саагун, Куприенко С.А. Общая история о делах Новой Испании. Книги X-XI: Познания ацтеков в медицине и ботанике / Ред. и пер. С. А. Куприенко. — К.: Видавець Куприенко С.А., 2013. — 218 с. — (Месоамерика. Источники. История. Человек). — ISBN 978-617-7085-07-1.
4. M.S.Mexmonov, K.B.Ozimbayeva. Farmakognoziya. Xalq tabobati yo‘nalishi talabalari uchun. Darslik. “O‘zkitobsavdonashriyoti” NMIU, Toshkent, 2023 y. 384 b.